“O‘zkimyosanoat” AJ Komplayens xizmati boshlig‘i vakant lavozimiga tanlov e’lon qiladi

// 25 July 2022 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/tender/compliance-head

“O‘zkimyosanoat” AJ Komplayens xizmati boshlig‘i vakant lavozimiga ochiq tanlov e’lon qiladi. Ochiq tanlovda qatnashish uchun nomzodlardan anketa-rezyume va shaxsiy hujjatlar *(diplom nusxasi, pasport nusxasi, mehnat daftarchasi nusxasi va rasm)* n.mamedova@uks.uz pochta manzili orqali 2022-yil 25-iyuldan 2022-yil 5-avgustga qadar qabul qilinadi.

“O‘zkimyosanoat” AJda nomzodning yuborilgan anketa-rezyumesi ijobiy xulosa uyg‘otsa, anketa-rezyumeda ko‘rsatilgan telefon raqami yoki elektron pochta manzili orqali bog‘laniladi.

Tanlov 3 bosqichda o‘tkaziladi:

Birinchi bosqich

Nomzodlar yuborgan anketa-rezyumelari va hujjatlar tegishli mas’ullar ishtirokida tanlov e’lon qilingan lavozimning malakaviy va qo‘shimcha lavozim talablariga mos kelishi bo‘yicha o‘rganib chiqiladi hamda saralanadi. Vakant lavozimga mos kelgan nomzodlar keyingi bosqich – test sinovlariga taklif etiladi.

Ikkinchi bosqich

Test sinovlarini “O‘zkimyosanoat” AJning Toshkent shahridagi ma’muriy binosida o‘tkazish rejalashtirilgan. Test sinovi soha bo‘yicha hamda nomzodlarning O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchiligini, moliyaviy nazorat, komplayens nazorat, iqtisodiy va boshqaruv bilimlari, rus va ingliz tillarini bilish darajasini, mantiqiy fikrlash, tarix bo‘yicha bilimlarini birlamchi baholash uchun o‘tkaziladi. Test sinovlaridan minimal o‘tish bali – 70 ball. Sinov jarayonlari videotasvirga olinadi.

Uchinchi bosqich

Test sinovlaridan eng yuqori ball to‘plagan nomzodlar bilan “O‘zkimyosanoat” AJ tegishli mas’ullari hamda “O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi vakillari ishtirokida onlayn shaklda suhbat o‘tkaziladi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Komplayens xizmati boshlig‘i vakant lavozimiga qo‘yiladigan talablar

Vazifalari, funksional majburiyatlari:

- jamiyat faoliyati, shuningdek, uning huquqni muhofaza qilish amaliyoti uchun qo‘llaniladigan korrupsiyaga qarshi qonun hujjatlari talablarini tahlil qilish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi eng yaxshi amaliyotlarni doimiy tahlil qilish, shu jumladan, milliy va xalqaro tavsiyalar asosida Jamiyat ichki hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;
- jamiyatda korrupsiya xavf-xatarlarini baholash metodologiyasiga muvofiq korrupsion xavf-xatarlarni baholash, Jamiyatning korrupsiya xavf-xatarlari xaritasini tuzish va uni barcha manfaatdor tomonlar

bilan muhokama qilish va muvofiqlashtirishni ta’minlash;
- sohaga oid materiallarni tayyorlash va Jamiyatning rasmiy veb-saytidagi “Korrupsiyaga qarshi kurash” bo‘limida va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalariga joylashtirish va ma’lumotlarni yangilash ishlarini nazorat qilish;
- har chorakda Jamiyatning ichki qoidalarga muvofiq xodimlarning ichki tartib- intizomni bajarish holati, korrupsiya xavfi yuqori sohalarda, shu jumladan, bitimlar va to‘lovlar monitoringini nazorat qilish;
- jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida hisobot berish va ushbu natijalarni manfaatdor shaxslarga yetkazish, shu jumladan, boshqaruv organlari (Boshqaruv va Kuzatuv kengashi) majlislarida taqdim etish;
- davlat tomonidan ilgari surilgan korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari doirasida Jamiyatga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini monitoring va nazorat qilish.

Nomzodga qo‘yiladigan talablar:

- 30 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lganlarga ustuvorlik beriladi;
- Iqtisod, moliya, texnika, yurisprudensiya sohasida oliy ma’lumot;
- Moliya, iqtisod, audit, nazorat taftish, yurisprudensiya va tezkor faoliyat sohalari bo‘yicha kamida besh yillik ish tajribasi (tezkor faoliyat sohalarida ishlagan bo‘lsa ustunlik beriladi);
- Moliyaviy nazorat, komplayens nazorat, ishlab chiqarish bilan bog‘liq sohalarda kamchiliklarni tekshirish hamda tekshiruv natijalarini hujjatlashtirish, zamonaviy fikrlash, soha bo‘yicha takliflar berish hamda ularni joriy etish;
- O‘zbek tilini yozma va og‘zaki nutq uchun erkin darajada bilishi shart. Rus va ingliz tillarini bilishi ma’qullanadi.
- Kompyuter savodxonligi, ofis dasturlarini mukammal bilish;

Hamkorlik shartlari:

- Bandlik shakli: Ofisda/to‘liq bandlik;
- Ish tartibi (boshlanish vaqti, tugash vaqti, ish xaftasini davomiyligi, dam olish kunlari): 09:00 dan 18:00 gacha. Dushanba-juma.
- Mehnat qonunchiligi doirasida ish vaqtidan tashqari ishga jalb etilishi mumkin;
- Sinov muddati 3 oy;
- Uzoq muddatli xizmat safarlariga tayyorlik.

Qo‘shimcha talablar:

- Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha sertifikatlarning mavjudligi;
- Mas’uliyatlilik, vijdonlilik, samaradorlik, tirishqoqlik, stressga chidamlik;
- Nomzodlar moliya va nazorat idoralarida ishlab chiqarish sohalarida ko‘proq ishlagan bo‘lishi kerak;
- Nomzodlarga cheklovlar:
    - tegishli ma’lumotning yetishmasligi;
    - tavsiya etilgan lavozimda tajribaning yetishmasligi;
    - sog‘liqning qoniqarsiz holati (xodimning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soladigan surunkali kasalliklar);
    - iqtisodiy jinoyatlar bilan bog‘liq sudlanganlik.

Ma’lumotnoma nusxasini yuklab olish